



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº S/5 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy

kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 5- maxsus son (Iyun, 2025). - 302 bet.

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Abdullaev Ulug'bek Saydanovich</i>	
O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR	10-14
<i>Shukurillayev Yunus Asrorovich</i>	
BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO'RQLASH, QOROVULLIKNI O'TASH VA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI TAHLILI	15-19
<i>Rahmankulova Adolat Xushbakovna</i>	
ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ	20-25
<i>Xusanov Xabibullo Xakimovich</i>	
O'ZBEKİSTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZİDDİYATLI VAZİYAT VA MILLİY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNİNG TARİХİY AHAMIYATI	26-30
<i>Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna</i>	
THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR	31-38
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i>	
THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE OF SOCIAL PROBLEMS IN IT.....	39-42
<i>Nazirov Baxtiyor, Mo'minov Nodirbek Botir o'g'li</i>	
IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI	43-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>İslamutdinov Vadim</i>	
СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	49-54
<i>Melibaeva Gulxon Nazrullayevna</i>	
BENCHMARKING KICHIK INNOVATSION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHligini OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA.....	55-65
<i>Ульмас Ибрагимов</i>	
ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	66-75

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Salomova Hakima Yusupovna</i>	
ME'YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI	76-83
<i>Djumaniyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom</i>	
YURIDIК TA'LIM VA YURIDIК KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA.....	84-90
<i>Djo'raev Anvar Muxamadiyevich</i>	
IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI	91-96

<i>Каримова Гулчехра Самадовна</i>	
ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО- ЭТИЧЕСКИХ.....	97-101
<i>Гайбуллаев Жавлон Шавкатович</i>	
ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ.....	102-105
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i>	
YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....	106-110
<i>Taylyakova Feruzaxon Sultanovna</i>	
O'ZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	111-116
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i>	
TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA.....	117-120
<i>Yarashov Sarvar Norqul o'g'li</i>	
SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TA'SIRI.....	121-125
<i>Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux</i>	
ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN'AT FALSAFASI.....	126-130
<i>Ахмедова Дилбар, Шавкатова Ширин</i>	
ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ.....	131-135
<i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag'alevna</i>	
EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI.....	136-139
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Muqumova Dilafruz</i>	
IRFONIY SAYRU SULUKNING JA'FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE'RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI.....	140-147
<i>Xo'jamqulov Anvar, Tog'ayeva Shoxnoza</i>	
TAXAYYUL OLAMI TAHILLARI.....	148-159
<i>Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon</i>	
ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS OF METAPHORICAL INNOVATIONS	160-163
<i>Mamatova Feruza Maxammadovna</i>	
FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	164-168
<i>Burxonova Gulmira Olimjon qizi</i>	
TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLER SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI.....	169-172
<i>Berdiqulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara</i>	
BOG'LOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA	173-177
<i>Musurmonova Barchinoy Hasan qizi</i>	
FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI.....	178-182

<i>Яркулова Фотима Усмановна</i>	
ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ	183-186
<i>Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna</i>	
О'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLER OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR.....	187-190
<i>Musoeva Hayitgul Urokovna</i>	
THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART" IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE"	191-195
<i>Yuldasheva Kamola</i>	
SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR.....	196-202
<i>Matkarimova Malika Oybek qizi</i>	
HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS.....	203-206
Kamola Hatamova	
HUJJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	207-210

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Uralov Sharof Urazaliyevich</i>	
PROBATSIYA INSPEKTORLARIGA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI	211-216
<i>Mamatmurodov Farrux</i>	
METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE	217-222
<i>Муталипова Лола Фархадовна</i>	
СМАРТ-КОНТРАКТЫ И БЛОКЧЕЙН: ВЫЗОВЫ ДЛЯ ДОГОВОРНОГО ПРАВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	223-234
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СЕКСУАЛЬНОГО НАСИЛИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ .	235-241
<i>Abdullayeva Parvina Baxrilloyevna</i>	
RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH	242-246

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i>	
RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI.....	247-252
<i>Namozova Dilorom Tursunovna</i>	
MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI	253-261
<i>Давыдова Руфина Артуровна</i>	
РОЛЬ ГУМАННОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПРЕОДОЛЕНИИ АГРЕССИИ И ОТЧУЖДЕНИЯ СРЕДИ ШКОЛЬНИКОВ	262-266
<i>Gaziev Baxromjon Valievich</i>	
OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI	267-273

<i>Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi</i>	
DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI:	
O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI.....	274-279
<i>Rakhmonova Dilnura Saidovna</i>	
TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARING	
KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI:	
AMALIYOT VA TAJRIBA.....	280-286
<i>Yakubova Barno Baxtiyorovna</i>	
MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA	
QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.....	287-290
<i>Rixsiboyev Behzod Alisherovich</i>	
IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI	291-295
<i>Islamova Moxichexra Bekmurzayevna</i>	
TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI	296-301

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES

Received: 2 June 2025

Accepted: 15 June 2025

Published: 30 June 2025

Article / Original Paper

MODERNIST REPRESENTATION AND INTERPRETATION OF SUFI SPIRITUAL JOURNEY IN THE POETRY OF JAFAR MUHAMMAD TERMIZI

Mukumova Dilafruz

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences,

Acting Associate Professor of the Termez University of Economics and Service

Abstract. This article analyzes and examines the poem "Tului sabzi rang" (Green sunrise of color) by the bilingual poet and Sufi scholar Jafar Muhammad Termizi (Jafar Kholmuminov), who wrote in Persian-Tajik and Uzbek in the Art Nouveau style, from the literary and philosophical-Sufi points of view. The article deeply analyzes the artistic techniques, symbolic images, mystical meanings and philosophical-Sufi content of the poem, reveals the metaphysical, dialectical and epistemological views of the poet, artistically reflected in the poem.

Keywords: Jafar Muhammad Termizi, «Tului sabzi rang», poem, Irfan, Mysticism, poetry, modernism, image, representation, interpretation, artistic, philosophical and mystical, analysis, research. sky, cloudy, ant, staff, Sufi.

IRFONIY SAYR-U SULUKNING JA'FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE'RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI

Muqumova Dilafruz

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti v.b

Annotatsiya. Ushbu maqolada fors-tojik va o'zbek tillarida ijod qilib kelayotgan zullisonayn shoir va tasavvufshunos olim Ja'far Muhammad Termizi (Ja'far Xolmo'minov)ning fors-tojik tilida modern uslubida yozgan "Tuloi sabzi rang" (Rangning yashil chiqishi) nomli she'ri adabiy va falsafiy-irfoniy jihatlardan tahlil va tadqiq etiladi. Maqolada she'rning badiiy san'atlari, simvolik obrazlari, irfoniy ma'nolari va falsafiy-irfoniy mazmuni chuqur tahlil qilinib, shoirning she'rda badiiy tarzda aks etgan metafizik, dialektik va gnoseologik qarashlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ja'far Muhammad Termizi, "Tuloi sabzi rang", she'r, Irfon, mistika, she'riyat, modernistik, obraz, tasvir, talqin, badiiy, falsafiy-irfoniy, tahlil, tadqiq.osmon, bulutli, chumoli, aso, so'fiy.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N24>

Kirish. Ja'far Muhammad Termizi – taniqli zamonaviy fors-tojik adabiyoti vakillaridan biri. Shu paytgacha uning O'zbekiston, Tojikiston va Eronda 11 ta she'riy to'plam va kitoblari fors-tojik tilida nashr etilgan bo'lsa, o'zbek tilidagi 3 ta she'riy to'plami O'zbekistonda nashrdan chiqqan.

Ja'far Muhammad Termizi she'riyati adabiy jamoatchilik va kitobxonlar ommasi tomonidan nihoyatda iliq kutib olingan va adabiy tanqid tomonidan e'tirofga sazovor deb topilgan. U nafaqat fors-tojik tilida, balki shuningdek, o'zbek tilida ham falsafiy-irfoniy poetikani muvaffaqiyat bilan davom ettirib kelayotgan shoir sifatida zamonaviy o'zbek she'riyatida ham alohida o'ringa ega. Uning "Tuloi sabzi rang" nomli she'ri nafaqat badiiy

kashfiyotlar natijasi, balki metafizik va irfoniy tafakkur mahsuli ham bo'lib, Tasavvuf ta'limotidagi faqr, fano, suluk, zikr va tajalliy kabi mavzularini ramziy-badiiy tarzda, ammo modern uslubda bayon etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ja'far Muhammad Termiziy she'riyati, u an'anaviy shakllarda bo'ladimi, yo modern uslublarda bo'ladimi, tasavvufiy-irfoniy tafakkur va g'oyalar bilan limmo-lim. Ammo, N.Komilov ta'biri bilan aytganda, "Ja'far she'rlari falsafiy tushunchalar qaytarig'i, biror bir tayyor g'oyani talqin etuvchi nazmiy qatorlar emas. U shunchaki, inson ruhiyatining xiyla teranroq qatlamlariga kirib borish, Inson zotining ilohiyligi zamirida yashiringan sirlarni namoyon etishga muvaffaq bo'ladi, o'quvchini ruhlantiradi, Olamga va o'ziga boshqacha ko'z bilan qarashga undaydi. Masalan, "Nur shahriga safar" she'rini olaylik. She'rning umumiy mazmuni karaxtlik, ruhiy lanjlikdan qutilib, yorug'lik – hayot go'zalligini his etish va undan bahramand bo'lish hissining qo'zg'alishidir. Biroq ana shu tuyg'u nur va soya timsollari qiyosi orqali o'ziga xos bir ta'sirchan tarzu tarovat bilan sug'orilgan".[1,3-4] Bu fikrni shoirning fors-tojik tilida yozilgan va adabiy jamoatchilik tomonidan yuksak baholangan she'ri – "Tulo'i sabzi rang" (Rangning yashil chiqishi)ni ham adabiy va ham falsafiy-irfoniy jihatdan tahlil qilish orqali tasdiqlashimiz mumkin. "Tulo'i sabzi rang" she'rining asliyati quyidagicha:

*Осмон абрӯ буд.
Хок абрӯ,
бод абрӯ,
вожа дар нўки забон абрӯ буд.*

*Ранги андешаи ман
на шимолӣ,
на ҷанубӣ
ва на шарқиву на ғарбӣ буд.
Ранги андешаи ман
ниҳ чу ҷон абрӯ буд.*

*Мӯрчае пой ниҳод
аз Ҷаги гардани андешаи ман,
ба сулуке, ки Ҳудо медонист,
раҳбалад кист...*

*Мӯрча сӯфӣ буд,
Ман асо будаму бо ҳоҳиши ў мерабтам.
Ман асо будаму ў Мӯсо буд.*

*Мӯрча боло мерабт.
Мӯрча аз ман
ба баландии ду барг,
ба дарозии ду марг
ва ба густардагии хоби саҳар
боло буд.*

*Хоқу бод абрӯ,
фикару ёд абрӯ,
роҳраву роҳнамо,
фақру фано абрӯ буд.*

*Ман алиф,
долу забар,
зер шудам.
Назари пир шудам.
Гарди миҷгони муриде шудаму дидам:
дар ҳама хонақаҳу зовияҳо
зикри Ҳудо абрӯ буд...[2,122]
She'rning so'zma-so'z tarjimasi quyidagicha:
Osmon bulutli edi.
Tuproq bulutli,
shamol bulutli,
tilimning uchida turgan kalom ham
*bulutli edi.**

*Fikrimning rangi
na shimoliy,
na janubiy,
na sharqiy va na g'arbiy edi.
Fikrimning rangi ham,
jon kabi, bulutli edi.*

*Bir chumoli fikrim bo'ynidagi tomir ustidan
qadam qo'ydi
Shunday bir yo'lgaki,
Yo'lboschchisi kim,
Xudo biladi.*

*Chumoli so'fiy edi.
Men aso edimu uning xohishi-la borardim.
Men aso edimu u Muso edi.*

*Chumoli tepaga ko'tarilardi.
U mendan
ikki barg balandlikkacha,
ikki o'lim uzunlikkacha,
va sahar uyqusi kengligichalik
balandda edi.*

*Tuproq ham, shamol ham bulutli edi,
fikr ham, yod ham bulutli edi.
Yo'lovchi ham, yo'lboshchi ham,
faqr ham, fano ham bulutli edi.*

*Men alif,
dol-u zabar, yer bo'ldim.
Pirning nazariga aylandim.
Bir muridning kirriklaridagi g'uborga aylandim
va ko'rdim:
har bir xanaqoh, har bir takyada
Xudoning zikri bulutli edi...*

“Tulo'i sabzi rang” (Rangning yashil chiqishi) she'rining ilk misralaridayoq oq bulutli manzara paydo bo'ladi:

*Осмон абрӯ бууд.
Хок абрӯ, бод абрӯ, вожса дар нўки забон абрӯ бууд...[2, 122].*

Bu yerda “abrӯ” (bulutli) so'zi takrori orqali she'rga latif va nazokatli bir fazo berilgan. Bu fazo inson qalbidagi g'oyatda pokiza, lekin ayni paytda tushunishi mushkul bo'lgan ruhiy tuyg'ularni ifoda etadi. Har bir jism va harakat bulut kabi shaffof, shu bilan birga o'zgaruvchan, yuksaluvchan, ko'zga yaqin, ammo qo'lga tushmas mohiyatga ega. Ana shu ramziylik, pinhoniylik va sirlilik she'rga mistik kayfiyat bag'ishlagan.

“Chumoli” obrazi butun she'rda markaziy simvol sifatida namoyon bo'ladi. Bu jonzod oddiy hayvon emas, u – so'fiy, u – yo'lboshchi:

*Мўрча сўфӣ бууд,
Ман асо будаму бо хоҳиши ў мерафтам.
Ман асо будаму ў Мўко бууд.[2,122]*

Muhokama va natijalar. Shoir o'z lirk qahramonini “aso” sifatida tasvirlaydi, ya'ni u faol sub'yekt emas, balki bir vosita, murshid emas, balki murid. Chumoli esa Muso – u haqiqat izlovchi, har bir qadami bilan ko'rinas olam sari yuksaluvchi ruhiy mavjudot.

Boshqa bir murakkab va nihoyatda nodir badiiy tasvir – “ikki barg balandlikda, ikki o'lim uzunlikda” hayot va o'lim o'lchamlarini botiniy nuqtai nazardan ko'rsatadi. Bu – ikki dunyo chegarasidagi harakat, vaqtinchalik va abadiylik o'rtasidagi ichki dramani aks ettiradi.

Bu she'rda bulutli (abri) fazo tasviri orqali mavhumlik bilan birga ma'naviy halovat hissi va ruhiy safari tasvirlangan. Shoir osmon, tuproq, shamol, yo'lovchi, yo'lboshchi, fikr, yod (xotira), faqr, fano va nihoyat, Xudoning zikriga “bulutli” sifatini berar ekan, ma'naviy borliqning g'amgin, huznli, lekin iliq va umidvor etuvchi, bularidan tashqari, sirli va mavhum holatini yaratadi. Natijada, she'r mistik ohangga ega bo'ladi. Jumladan, shoir tasvirida fikrning “shimoliy, janubiy, sharqiy yo g'arbiy emasligi” – fikrning hududsizligini, chek-chegarasizligin anglatadi, buni irfoniy ma'noda “jamoliy (ilohiy) manba'dan kelgan fikr”, deb sharhlash mumkin.

Chumoli – irfoniy safarga chiqqan solik obrazi bo'lib, so'fiy sifatida tasvirlangan. U Xudoni ma'rifat etish yo'lidan ketadi “Chumoli” she'rda oddiy jonivor yo hasharot emas, balki u

so'fiy timsolidir. U shoir lirik qahramoni fikrining bo'yin tomirlarida yuradi, ya'ni, harakat qiladi. Bu – xafiy (pinhoniy) safar, ya'ni botiniy va irfoniy harakat va so'fiyona sayr-u sulukni anglatadi.

"Chumoli So'fiy edi, men esa aso" – bu ta'bir Tasavvufdagi Muso va Xizr, yoki shogird va murshid, yoki harakat va hidoyat o'rtasidagi tanosubni aks ettiradi. Bu yerda almashish yuz beradi: chumoli Muso, lirik qahramon esa aso. Oddiy jonzot – hidoyat etuvchi, shoirning "men"i – vosita.

"Ikki barg balandlik, ikki o'lim uzunlik" kabi poetik obrazlar har bir qadam – hayot va o'lim, vahdat va fanoning chegarasidek. Chumoli nafaqat doimiy harakatda, u doimiy ma'naviy yuksalishda, u doimiy safar filallohda.

Har narsa – tuproq, shamol, fikr, yod, yo'l, yo'lovchi va yo'lboshchi – bulutli holatda, ya'ni g'ayriqat'iy, lekin ruhoniy va shaffof. Bu tasviriy fikr Ibn Arabiyning "Vahdati vujud" g'oyasini, G'azzoliyning "ma'rifatni nayranglar orqali topish"ini eslatadi.

"Alif, dol, zabar (fatha), zer" – bu harfiy va ma'naviy sukut, "nazar", "ko'rish", "fano" holati. Harflar so'fiy yo'lidagi zikr, qabul va fanoning ramziy belgilari sifatida kiritilgan.

"Muridning mijgonidagi g'uborga aylanish" – shoir "men"ining xoksor tabiatini namoyon etadi. Lirik qahramon o'zini eng kichik, lekin haqiqiy xolis bir zarra sifatida tanishtiradi. Shunda u "Xudoning zikri ham bulutli" ekanligini ko'radi.

She'rda shoir butunlay yangi tasviriy ifodalarni mahorat bilan ishlatgan. Masalan: "Osmon, tuproq, shamol – bulutli", "chumoli ikki marg uzunlikda", "sahar uyqusicha kenglikda" – bular hayot va ruhiyatni tasvirlovchi mukammal ramzlardir.

She'r simvolistik, ya'ni ramziy she'rdir. Unda shoirning simvolistikadagi kashfiyotlarini ko'rish mumkin. Masalan: "chumoli – so'fiy; aso – vosita; harflar – solik ahvolida yuz beradigan o'zgarishlar; mijgon – orifona nazar.

Fikrning na shimoliy, na janubiy, na sharqiy va na g'arbiy bo'lishi; lirik qahramonning aso, chumolining Mo'so bo'lish; zikrning bulutli bo'lishi. Bularning barchasi *irfoniy metafizika paradokslardir*.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Ja'far Muhammad Termiziyy she'riyati – irfoniy she'riyat. Bu she'riyat asl mazmun-mohiyatini yaxshiroq anglab, tushunish uchun o'quvchi Tasavvuf ta'limoti va Irfon falsafidan yaxshigina xabardor bo'lishi lozim. Bu holatni adabiy tanqid allaqachon payqagan edi. Jumladan, professor Jumaqul Hamroyev birinchilardan bo'lib Ja'far Muhammad Termiziyyning irfoniy she'riyatiga e'tibor qaratgan edi. Adabiyotshunos olimning fikricha, "Ja'far irfoniy ma'naviyatni tasdiqlash va ta'kidlash orqali o'quvchiga yo'lni Adolat va Odamiylik sari, nur-u safo va osoyishtalik shahri sari yaqinlashtiradi".[3,9] Mashhur adabiyotshunos va tasavvufshunos olim professor Najmiddin Komilov ham Ja'far Muhammad she'rlaridagi irfoniy mazmunlarga ishora etib o'tgan edi: "Hayot uning uchun – nur daryosi, to'xtovsiz mavjlanib oqadigan umr, vaqt... Bu timsollar gohida qadimiy «Avesto» madhiyalari, goho vahdat ul-vujud falsafasi g'oyalari, goho kutilmagan insoniy kechinmalari bo'lib sado beradi, bir butun Yorug'lik – Nur bo'lib qalbga kiradi, hayrat vodiysiga chorlaydi".[1,3]

Irfoniy sayr-u suluk:

Bu she'r tasavvufiy safarni simvolik shaklda tasvirlaydi: nafs – tumanli, til uchidagi so'z – bulutli, yod – noaniq va safar – zohiran oddiy chumolining harakatidek. Ammo u sayri irfoniy sayr-u suluk, so'fiyona safardir, yo'lni esa faqat Xudo biladi, yo'lboshchi esa hayrat va ixlos timsolidir.

Tasavvuf falsafasining ulug' nazariyotchilaridan biri Aziziddin Nasafiy "suluk"ni shunday ta'riflaydi: "Bilgilki, suluk – sayr demakdir. Sayr esa "sayr ilalloh" va "sayr filloh"dan iborat. Sayr ilalloh (Allohdan)ning oxiri – nihoyati bor, ammo sayr filloh (Allohdan)ning oxiri – nihoyati yo'q. Va sayr ilalloh shundan iboratki, solik shunday sayr qilishi kerakki, o'z borlig'ida yo'qolib, Xudoning borlig'ida bor bo'lsin va Xudoda (Xudo yodida, muhitida) tirik, bilguvchi, eshituvchi, ko'rvuvchi va gapiruvchi bo'lsin.

Agarchi solik o'zligidan butkul qutulgan (unutgan) bo'lib, lekin mabodo borlig'imdan bir narsa bor deb o'ylaydigan bo'lsa, bu o'y-fikr qo'zg'olib qoladi va to'la ishonch hosil qiladiki, bu borliq Xudoning borlig'idan boshqa narsa emas. Bu borliq Xudoning borlig'i ekanini bilgach va ko'rgach, sayr ilalloh oxiriga yetgan bo'ladi va sayr filloh boshlanadi. Sayr filloh (Allohdan)ning shundan iboratki, solik Xudoning borligida bor bo'ladi va Xudo bilan (Xudo nurida) tirilib, dono, ko'rvuvchi, gapiruvchi va eshituvchi bo'ladi, yana bir necha bor shunday sayr qiladiki, barcha narsalarning, narsalar hikmati – xossalaring oxirigacha batatsil va teran bilib anglaydi va haqiqat – mohiyatni ko'radi".[4,16]

Sayr-u suluk jarayonida shoirning lirik qahramoni ham "nazar"ga aylanadi. Bu nazar orqali u ko'radi: butun borliqda, xonaqoh va zoviyalarda zikr – bulutli holda mavjud. Ana shu jarayonda bilish – ma'rifat hosil bo'ladi. Shoirning "Men"i borliq va ashyolarning haqiqatini anglay boshlaydi. Bu "bulutli zikr" – xafiy zikr, ya'ni ovozsiz, qalbdagi zikrdir. Bu zikr nihoiy maqsad – Xudoni "huzur"da, ixlos va muhabbat orqali anglash va ma'rifat etishdir:

Гарди миҗсони муриде шудаму дидам:

*дар ҳама хонақаҳу зовияҳо
зикри Ҳудо абрӯ буд..[2,122].*

"Sayr filloh natijasida "Mulk, malakut va jabarut olamida hamma narsa va hodisalar unga ayon bo'lib qoladi. Ba'zilar bir odam mana shu hamma narsani bilib olishi mumkin va bilmaydigan narsasi qolmaydi, deganlar.

Yana ba'zilar bir odam buning hammasini bilishi mumkin emas, zero, odamning umri qisqadir, Xudoning ilm-u hikmati esa ko'pdır, deganlar. Shundan kelib chiqib, sayr filloh (Allohdan)ning oxiri yo'q deganlar".[4,16]

Shoir:

*Мўрча аз ман
ба баландии ду барг,
ба дарозии ду марг
ва ба густардагии хоби саҳар
боло буд.[2,122]*

deganda, nozik bir ishora bilan "banda va Xudo o'rtasidagi uzunlik"ni nazarda tutadi.

Bu ma'noni Aziziddin Nasafiy shunday tushuntirgan: "...hikmat ahli (faylasuflar) deydilarki, sendan Xudogacha uzunlik tariqasida masofa bor, chunonchi, shu jihatdanki, mavjudot qismlaridan har bir qismi (ko'rinishi)ning Xudoga nisbati daraxtning har bir a'zo – qismi, martabalarining daraxt urug'iga nisbati kabitdir. Va tasavvuf ahli deydilarki, sendan Xudogacha kenglik tariqasida masofa bor, chunonchi, bu shunga o'xshashki, mavjudot qismlaridan har bir qismining Xudoga nisbati bu kitobdagagi harflarning har birining kitobga nisbati kabi. Vahdat ahli fikricha esa, sendan Xudogacha na uzunasiga, na kenglikda hech bir yo'l yo'q. Shu sababdanki, mavjudot qismlaridan har bir qismning Xudoga nisbati ushbu kitob

harflaridan har bir harfning qalamga qiyosi (nisbati) kabidir. Shuning uchun ham vujud bittadan ortiq emas, deganlar va Xudo taolo va taqaddasning vujudidir va Xudo vujudidan o'zga vujud yo'q va buning bo'lishi mumkin emas".[4,16]

Haqiqatan ham Tojikiston Xalq shoiri, nuktasanj munaqqid Kamo Nasrulloh Ja'far Muhammad Termiziy she'r va g'azallari tahliliga bag'ishlagan maqolasida e'tirof etganidek, "shoir she'rlarining mutolaasidan u Irfon va Tasavvuf ta'limotidan yetarli darajada xabardor ekan, degan xulosaga olib keladi. Xususan, uning "Namedonand" (Bilmagaylar) nomli she'rida bu holat yaqqol namoyon bo'ladi... Bu she'r boshdan-oyoq bikr (yangi) irfoniy ma'nolardan iborat".[5]

- Faqru fano falsafasi: "*Men alif, dolu zabar, yer bo'ldim*".

Shoirning "Men"i fano maqomi, ya'ni, shaxsiyatning yo'qolishi, ma'naviy erishi, va "alif" kabi mukammal va oddiy bo'lishni qabul qilmoqda. Bu g'oya G'azzoliy, Rumiy, va Ibn Arabiyning "Fano" nazariyasidan sarchashma oladi.

- Zikr va vijdon:

She'r oxiridagi "Har bir xonaqoh va takyada Xudoning zikri bulutli edi" – zikrning o'zi ham bulutli, ya'ni mustaqim emas, balki maxfiy, latif va ramzlidir. Bu holat iqtisor va xafiy zikrning ruhiga muvofiq keladi.

Chumoli – kichik, lekin Ma'rifikat yo'lining haqiqiy yo'lovchisidir. U muallifni olib ketadi. Bu yerda Chumoli – Muso – Lirik qahramon – aso: tafakkur, ruh, vijdon va jism insonning vazifalarini almashtirishadi. Bu mutaharrik, ya'ni tasavvufiy harakat va sobitlikning dramasidir.

Ushbu she'r bir vaqtning o'zida hayot va falsafa, Irfon va obraz, suqut va zikr, xoksorlik va tajalliy tashunchalarini murakkab, shu bilan birga nihoyatda latif badiiy uslubda, bulutli fazoda, mutlaq ma'noda ifoda etgan irfoniy-modernistik she'rdir.

She'rning tasavvufiy-irfoniy mohiyati to'rtta asosiy nuqtada to'plangan: suluk (ruhiy safar), faqru fano (yo'qlik va ogohlilik), zikr va vijdon.

Sayru suluk – ruhiy harakat.

Chumolining harakati, garchi u kichik jonzot bo'lsa ham, uning yo'li Xudo ma'rifikat etish yo'ldir. Bu – irfoniy sayr-u suluk, ma'naviy safar. Ushbu safarda shoirning lirik qahramoni Xudo izlovg'i emas, balki xidoyat etiluvchidir. Bu esa Tasavvufdagi mashhur tamsilni – muridning o'z nafsidan voz kechib, irshodga taslim etilishini ifoda etadi.

Faqru fano – yo'qlikda mavjudlik:

Man alif, dolu zabar, zer shudam.[2,122]

Bu yerda "alif"dan maqsad – yagonalik, ilohiylikka, ya'ni, Tavhidga ishora. Muallif o'zidagi har qanday g'ururni, aqlni, izlanishni fano qiladi va alif singari sodda, bir nuqta bo'lib qoladi. "Dol", "zabar", "zer" qur'oniy ma'nolarni va zikr alomatlarini ham anglatadi.

Xulosa. Ja'far Muhammadi Termiziyning "Tulo'i sabzi rang" (Rangning yashil chiqishi) nomli she'ri irfoniy poetik an'analarni modern uslubda ifoda etuvchi she'rdir. Shoir abstrakt va simvolik obrazlar orqali faqat ma'naviy safarni emas, balki insonning o'zligini anglash jarayonini, fano va vijdon orqali Xudoga yetmoq yo'lini ham ifoda etgan. She'rdagi har bir ramz Tasavvuf ta'limotining g'oyalari bilan chambarcha bog'langan bo'lib, u Tasavvuf falsafasi, G'azzoliy, Attor, Ibn Arabiy va Rumiyning ma'naviy merosi bilan falsafiy muloqotga kirishadi. Bu she'r faqatgina satrlar emas, balki bir ruhiy safar, bir vijdonni olamga tutayotgan Irfon durdonasidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Komilov N. Nur shahri madhiyasi. / Ja'far Muhammad. Ko'zgu hayrati. She'rlar. – Toshkent: "Tamaddun", 2010.
2. Ҷаъфар Муҳаммад. Тажаллӣ. Маҷмӯаи шеър. – Тошканд: Интишороти Давлатии "Доиратулмаъорифи миллии Ўзбекистон", 2008.
3. Ҳамроев Ҷ. Дарсе, ки аз дарё бояд омӯхт. / Ҷаъфар Муҳаммад. Тажаллӣ. Маҷмӯаи шеър. – Тошканд: Интишороти Давлатии "Доиратулмаъорифи миллии Ўзбекистон", 2008.
4. Nasafiy Aziziddi. Komil Inson kitobi. / Najmiddin Komilov, Olimjon Davlatov tarjimasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021.
5. Камол Насруллоҳ. Фарёди сабз аз гулўи ранг: Перомуни шеъри Ҷаъфар Муҳаммад. / "Адабиёт ва санъат", 09.07.2019.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº S/5 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).